

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

**Soliq ma'murchiliginini takomillashtirishda yirik soliq to'lovchilarining
muammolarning muhokamasi**

Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich

O'zbekiston Respublikasi

*Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi
huzuridagi Fiskal institut magistranti*

Annotation: Davlat moliya tizimining barqarorligi soliq va yig'imlarning o'z vaqtida va to'liq byudjetga tushishi bilan ta'minlanadi. Bugungi kunda, soliq siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri soliq ma'murchiliginini takomillashtirish bo'lib, bu orqali - ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, sog'lom raqobatni shakllantirish, soliq yukini kamaytirish orqali o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu maqolaning dolzarbliji soliq tushumlarining yarmidan ko'prog'ini ta'minlayotgan Yirik soliq to'lovchilar soliq ma'murchiliginining yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Soliq ma'murchiligi soliqlarning yig'uvchanligini oshirish bilan bir qatorda soliq majburiyatlarini amalga oshirishning qulayligini amalga oshirishdan iborat.

Kalit so'zlar: soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, yirik soliq to'lovchilar, soliq salohiyati, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Kirish: Xorijiy mamlakatlarning soliq tizimi soliq to'lovchilarining muayyan qatlamiga (moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari hajmiga muvofiq) e'tibor qaratish yo'li bilan soliq ma'muriyatçiliginini takomillashtirishga haraqat qilmoqdalar. Yirik soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligidagi rioya etilishini maxsus mexanizmlar orqali nazorat qilish usuli davlatning moliyaviy mablag'larini boshqarishda katta foyda keltiradi. Yirik soliq to'lovchilarni alohida rejimda nazorat tizimning yaratilishi byudjet-soliq qonunchiligidagi qat'iy rioya etilishiga va soliq ma'muriyatçiligi samaradorligining oshishiga olib keladi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O‘zbekiston Respublikasida soliq va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining zarur darajasini ta’minlash maqsadida Yirik soliq to‘lovchilar faoliyatini tashkil etish, ularning soliq ma’muriyatçiliginin amalga oshirish hamda soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik asosida servis-texnik xizmat ko‘rsatilishini tubdan takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston soliq tizimida yirik soliq to‘lovchilarning fiskal ahamiyati juda yuqori hisoblanishi, yirik soliq to‘lovchilar tomonidan byudjetga to‘langan mablag‘larning umumiy byudjetda salmoqli o‘ringa ega bo‘lganligi sabablar yirik soliq to‘lovchilar soliq ma’murchiligidagi muammolarni echish orqali ularni yanada rivojlantirish juda muhim ahamiyatga ega.

Yirik soliq to‘lovchi toifasiga kiritishdan boshlanadigan, ularni hisobga olish, ular doirasida soliq ob’ektlarini ro‘yxatga olish, ularga nisbatan soliq imtiyozlarini berish hamda soliq qarzlarini undirish borasidagi soliq xizmati organlarining yondashuvini o‘z ichiga oladigan soliq siyosati ma’lum bir shakllanish jarayoniga ega. Darhaqiqat yirik soliq to‘lovchilar toifasiga soliq to‘lovchilarni kiritish asosida ularni soliqqa tortishning o‘ziga xos yondashuvlar asosidagi soliq ma’murchiligidagi qo’llash ko‘p bo‘lmagan bo‘lsada, ammo bu borada o‘ziga xos tajribalarni shakllantirish evolyusion jarayon davom etmoqda. Bu holatni ilmiy-uslubiy jihatdan nazariy tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblagan holda uning shakllanish holatini ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston soliq tizimida yirik soliq to‘lovchilarga oid soliq ma’murchiligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagagi "Soliq ma’muriyatçiliginin tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlearning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-5116-sonli Farmonida alohida belgilab berildi. Ushbu farmonda Yangi O‘zbekiston soliq tizimining muhim muammolari bilan birgalikda milliy soliq tizimida soliq ma’murchiligidagi tubdan takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tildi. Unga ko‘ra, "soliq ma’muriyatçiligi va nazoratini tashkil etish tartibi hamda metodologiyasini tubdan takomillashtirish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va jismoniy shaxslarning soliq yukini yanada kamaytirish, bir xil soliq solish

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ob'ektlariga ega bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni birlashtirish, soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash uchun qo'shimcha mezon (oborotning chegaraviy miqdori) joriy etishni va ushbu miqdor oshgan korxonaga, kichik tadbirkorlik sub'ekti maqomini saqlab qolgan holda, qo'shimcha soliq majburiyatlarini belgilash, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni "yirik soliq to'lovchilar" toifasiga kiritish mezonlarini belgilash" kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi hamda yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi soliq to'lovchilarga nisbatan alohida soliq ma'murchiligi va uning huquqiy asoslari shakllantirila boshlandi.

Xulosa va takliflar:

Yirik soliq to'lovchilar soliq ma'murchilagini yanada takomillashtirish bilan bog'liq quyidagi takliflarni amaliyatga joriy qilish maqsadga muvofiq:

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2019 yil 12 iyulda 3172-sон bilan ro'yhatga olingan "Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qaror bilan bilan tasdiqlangan Nizomning:

- d) bandini "mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumi o'tgan kalendar yil yakuni bo'yicha 200 milliard so'mdan yuqori bo'lgan yoki ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr yakuni bo'yicha ushbu miqdordan oshgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxsining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari, bundan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi yuridik shaxslar mustasno" deb o'zgartirish;

- b) bandini "tijorat banklari, tovar-xom ashyo, fond va valyuta birjalari hamda sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar" deb o'zgartirish;

Adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 июлдаги "Солик маъмуриятчиликни тубдан такомиллаштириш, соликлар ва бошқа мажбурий тўловларнинг йифилувчанлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5116-сонли Фармони